

## ПУДРАТ ШАРТНОМАСИ №140215

05 сентябр 2022 йил

Данғара тумани

Икки томонлама хўжалик муносабатларини ифодоловчи мазкур низом асосида иш юритувчи “AZIYA ZAMIN BIZNESS” МЧЖ (кейинги ўринларда Пудратчи деб аталади) номидан рахбар **А.Салимов** биринчи томон ва иккинчи томон Ўзбекистон Республикаси Қонунчилиги ҳамда ўз Низомига асосан фаолият юритувчи **Данғара туман ирригация булими** номидан рахбар **С.Тожибоев** (келгусида Буюртмачи деб аталади)

### 1. Шартнома предмети.

1. Пудратчи ўз зиммасига буюртмачининг топшириғига асосан Оқтепасой, Қоракурпасой ва Қиялисой каналларида бажариладиган ишлар давомида вужудга келадиган лойка чиқиндиларни шаҳар ташқарисига ташиш ишларини смета хужжатларига асосан амалга оширади

### 2. Шартнома баҳоси.

2.1 Шартнома қиймати 156 600 000 (бир юз эллик олти миллион олти юз минг) сўмни ташкил этади.

2.2 Шартноманинг баҳоси тарафларнинг розилигага асосан ўзгариши мумкин.

### 3. Тўлов шартлари.

2.3 Ушбу шартнома бўйича тўлов пул ўтказиш йўли билан амалга оширилади.

2.4 Буюртмачи ушбу шартномага асосан Пудратчининг ҳисоб рақами бажарилиш лозим бўлган ишлар қийматининг 30% дан кам бўлмаган қисмини олдиндан ўтказиб беради.

2.5 Олдиндан тўланган тўлов қиймати амалга оширилгандан сўнг бажарилган ишлар учун тўловлар ҳар ойнинг охирида топширилган далолатномалар (ф-2) асосида амалга оширилади.

2.6 Шартнома бўйича барча ҳисоб-китоблар қурилиш таъмирлаш ишлари тўлиқ тамаомлангандан сўнг 60 кундан кечиктирмай Буюртмачи томонидан амалга оширилади.

2.7 Шартномада белгиланган суммадан ортиқ қўшимча бажарилган таъмирлаш ишлари учун буюртмачи ўз маблағидан ёки хомийлар томонидан кўзда тутилаётган маблағлар ҳисобидан тўлайди.

2.8 «Пудратчи» ушбу шартномани 1-бўлимида назарда тутилган ишларни «Буюртмачи» томонидан 30% фоиз бўнак (аванс) ни амалга оширилгандан сўнг 30иш куни ичида ишларни амалга оширади.

### 4. Томонлар ҳуқуқлари ва мажбуриятлари.

1. Буюртмачи Пудратчига ўз вақтида лойиха хужжатлари билан таъминлаши, шартномада кўрсатилган муддатда Пудратчига топшириши, Пудратчи томонидан бажарилган ишларни тўлиқ сифатини текшириб олиб қабул қилиб олиш.

2. Пудратчи ўз ишчи кучи билан ушбу шартномада ва иш режасида кўзда тутилган барча ишларни тўлиқ ҳажмда ва муддатида бажаришини ва тегишли лойиха хужжатларидаги ишларини Буюртмачига топшириши.

3. жорий-таъмирлаш объектлари учун зарур қурилиш материалларни конструкцияларни ташиш қабул қилиш ҳамда сақлашни Пудратчи томонидан амалга оширилади.

4. Пудратчи ушбу шартномада назарда тутилган бажарилиши лозим бўлган ишларни бажариш учун Буюртмачи билан келишилган ҳолда махсус ташкилотларни (субпудрат) жалб қилиши мумкин.

5. Давлат назорат органлари томонидан ўтказилган текшириш, тафтиш ва ўрганиш натижасида бажарилган ишларнинг сифатсиз ва ўз вақтида бажарилмаганлиги аниқланса «Пудратчи» томонидан зарар қопланади.

### 5. Тарафларнинг жавобгарлиги.

5.1.«Пудратчи» хизмат кўрсатиш муддатларини кечиктирганда, шартнома бўйича ўз мажбуриятини лозим даражада бажармаган ҳолларда «Буюртмачи»га кечиктирилган ҳар бир кун учун мажбурият бажарилмаган қисмининг 0.5% миқдорида пеня тўлайди, бироқ бунда пенянинг умумий суммаси етказиб берилмаган товарлар, бажарилмаган ишлар ёки кўрсатилмаган хизматлар баҳосининг 50 фоизидан ошиб кетмаслиги лозим. Пеняни тўлаш шартнома мажбуриятларини бузган тарафни товарларни етказиб бериш муддатларини кечиктириб юбориш, тўлиқ етказиб бермаслик, ишларни бажармаслик ёки хизматларни кўрсатмаслик оқибатида етказилган зарарни қоплашдан озод этмайди.

5.2.«Буюртмачи» кўрсатилган хизматлар ҳаққини ўз вақтида тўламаганлиги учун (етказиб берувчига)иш бажарувчига ўтказиб юборилган ҳар бир кун учун кечиктирилган тўлов суммасининг 0,4 фоизи миқдорида, аммо кечиктирилган тўлов суммасининг 50 фоизидан ортиқ бўлмаган миқдорида пеня тўлайди.

5.3. Пеняни тўлаш шартнома мажбуриятларини бузган тарафни товарларни етказиб бериш (Ишларни бажариш) муддатларини кечиктириб юбориш, тўлиқ етказиб бермаслик, ишларни бажармаслик ёки хизматларни кўрсатмаслик оқибатида етказилган зарарни қоплашдан озод этмайди. Курилиш-таъмирлаш ишларини бажариш давомида юзага келган камчиликлар пудратчи айби билан бўлса Пудратчи Буюрмачига зарар етказмаган холда кўрсатилган муддатда камчиликларни бартараф этади.

#### **6. Форс-мажор ҳолати.**

1. Тарафларнинг бирортаси ҳам бошқа тарафнинг олдида ушбу шартнома бўйича олинган мажбуриятларни улар истагидан ташқари пайдо бўлган ва уларни олдиндан кўра билиши ёки бартараф этиши мумкин бўлмаган ҳолат бўйича уруш эълон қилиниши ёки амалда бошланганлиги фуқоролик тартибсизлиги, вабо тарқалиши, сув тошқини, ёнғин ва бошқа табиий офатлар билан боғлиқ холда бажармаганликлари учун жавобгар бўлмайдилар.
2. Ўз мажбуриятларини бажармаган тараф бўйича мажбуриятини бажаришга унинг таъсир кўрсатиш ёки монелик қилиш тўғрисида бошқа тарафга имкон қадар тезроқ хабар бериши лозим.

#### **7. КОРРУПЦИЯГА ҚАРШИ ҚЎШИМЧА ШАРТЛАР.**

7.1. Тарафлар шартнома тузишда, шартноманинг амал қилиш муддатида ва ушбу муддат тугаганидан сўнг, шартнома билан боғлиқ коррупциявий ҳаракатлар содир қилмасликка келишиб оладилар.

7.2. Тарафлар шартномадаги коррупцияга қарши қўшимча шартларда белгиланган коррупциянинг олдини олиш чораларини тан олади ва уларга риоя этилиши бўйича ҳамкорликни таъминлайдилар.

7.3. Ҳар бир тараф шартнома тузилган пайтда бевосита ўзи ёки унинг ижро органлари, мансабдор шахслари ва ходимлари томонидан шартнома билан боғлиқ муносабатлар юзасидан қонунга хилоф равишда пул, моддий қийматликлар берилмаганлигини, шартнома тузилиши эвазига норасмий пул ёки бошқа моддий қийматликлар олиншига йўл қўйилмаганлигини, таклиф этилмаганлигини, уларни беришга ваъда қилинмаганлигини, шунингдек моддий ёки ҳар қандай турдаги имтиёз, устунликлар олинмаганлигини (келажакда бу турдаги ҳаракатларни амалга ошириши мумкинлиги ҳақида таассурот қолдирилмаганлигини) қафолатлайди. Тарафлар, улар томонидан шартнома доирасида жалб қилинган шахсларнинг (ёрдамчи пудратчи ташкилотлар, агентлар ва тарафлар назорати остидаги бошқа шахсларнинг) юқоридаги ҳаракатларни содир этмаслиги юзасидан оқилона чоралар кўради.

7.4. Тарафлар давлат хизматчилари, сиёсий партиялар, шунингдек ўзларининг ижроия органлари, мансабдор шахслари ва ходимлари томонидан ҳар қандай вақт ва шаклда қуйидаги ҳаракатларни бевосита ёки билвосита (шу жумладан, учинчи шахслар орқали) содир этилишига йўл қўймайди:

- а) назорат қилувчи органлардан лицензия ва рухсатномалар олиш, солиқ солиш, божхона расмийлаштирувини амалга ошириш, судда иш кўрилиши, қонунчилик жараёни ва бошқа соҳаларда қонунга хилоф равишда тижорат ёки бошқа тусдаги устунликка эга бўлиш ёки сақлаб қолиш мақсадида юқоридаги шахслар фойдасига ёки улар томонидан моддий ёки номоддий наф олишнинг таклиф этилиши, ваъда қилиниши, берилишига; б) қонунга хилоф равишда олинган даромадларнинг легаллаштирилишига, шунингдек, агар мулк жиноий фаолиятдан олинган даромад эканлиги тарафларга маълум бўлса, уни ўтказиш, мулкка айлантириш, ёхуд алмаштириш йўли билан унинг келиб чиқишига қонуний тус бериш, бундай пул маблағлари ёки бошқа мол-мулкнинг асл хусусиятини, манбаини, турган жойини тасарруф этиш, кўчириш усулини, пул маблағларига ёки бошқа мол-мулкка бўлган ҳақиқий эгалик ҳуқуқларини ёки унинг кимга қарашлилигини яширишга; в) коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик содир қилиш учун таъмагирлик қилиш, ундаш, тазйиқ ўтказиш ёки таҳдид қилиш. Ушбу ҳолат бўйича бир тараф иккинчи тарафни ҳамда ваколатли давлат органларини дарҳол хабардор қилиши шарт.

7.5. Тарафлар товарлар, ишлар ва хизматларни реализация қилиш ва ўтказишда битимлар тузиш бўйича музокаралар олиб боришда, лицензия, рухсатномалар ва бошқа рухсат этиш хусусиятига эга бўлган ҳужжатларни олишда ёки уларнинг манфаатларини кўзлаб бошқа ҳаракатларни амалга оширувчи тарафларнинг назорати остида бўлган ва улар номидан ҳаракат қиладиган шахсларга (шу жумладан, ёрдамчи пудратчилар, агентлар, савдо вакиллари, дистрибьюторлар,

хукукшунослар, ҳисобчилар, улар номидан ҳаракат қилувчи бошқа вакилларларга) нисбатан куйидаги ҳаракатларни амалга оширишлари шарт: - коррупциявий ҳаракатларга йўл қўйиб бўлмаслиги ва коррупциявий ҳаракатларга нисбатан муросасиз муносабатда бўлиши шартлиги ҳақида кўрсатмалар ва тушунтиришлар бериш; - улардан коррупциявий ҳаракатларни амалга ошириш учун воситачи сифатида фойдаланмаслик; - уларни фақат тарафларнинг оддий кундалик фаолияти жараёнидаги ишлаб чиқариш зарурати доирасидан келиб чиқиб ишга жалб қилиш; - уларга қонунчилик доирасида амалга оширган хизматлари учун белгиланган ҳақ миқдоридан асоссиз равишда ортиқча тўловларни амалга оширмаслик.

7.6. Тарафлар уларнинг назорати остида бўлган ва улар номидан ҳаракат қиладиган шахслар томонидан коррупцияга қарши қўшимча шартларда белгиланган мажбуриятлар бузилганлиги ҳолатлари ҳақида хабар берилганлиги учун уларга тазйиқ ўтказилмаслигини кафолатлайдилар.

7.7. Агар бир тарафга бошқа тарафнинг коррупцияга қарши қўшимча шартларнинг 7.4- ва 7.5- бандларида белгиланган мажбуриятларни бузилишига йўл қўйилганлиги маълум бўлиб қолса, иккинчи тарафни бу ҳақда зудлик билан хабардор қилиши ва ушбу тарафдан оқилона муддат ичида тегишли чоралар кўрилишини ва амалга оширилган ишлар юзасидан унга хабардор қилишини талаб қилиши шарт. Тарафнинг талаби бўйича иккинчи тараф томонидан қоидабузарликларни бартараф қилиш бўйича оқилона муддат ичида тегишли чоралар кўрилмаган ёки кўриб чиқиш натижалари ҳақида хабардор қилмаган тақдирда, ушбу тараф зарарни тўлик қоплаб беришни талаб қилишга ҳақли.

#### 8. Шартнома муддати

1. Мазкур шартнома икки томонорқали имзоланиб ҳудудий Ғазначилик бўлинмаси томонидан рўйхатдан ўтказилгандан сўнг қонуний кучга кирилади.
2. Мазкур шартнома икки нусхада тузилган бўлиб, 2022 йил 05 сентябрдан 2022 йил 31 декабргача амал қилади.

#### 9. Қўшимча шартлари.

1. Шартнома юзасидан келиб чиққан низолар ўзаро хал қилинади ўзаро хал қилинмаган тақдирда Ўзбекистон Республикаси қонунларига асосан иктисодий судлари орқали хал қилинади.
2. Шартнома икки нусхада тузилиб ҳар бир нусхаси тенг юридик кучга эга бўлиб томонларда бир нусхадан сақланади.
3. Шартномага барча ўзгаришлар икки томонлама келишилган ва шартномага қўшимча битим имзоланган ҳолда ва Ғазнатилик бўлинмасидан руйхатдан утгандан сунг қонуний деб ҳисобланади.

#### 10. Томонлар ҳуқуқий манзили ва реквизитлари:

##### ПУДРАТЧИ:

“AZIYA ZAMIN BIZNESS” МЧЖ

Учкуприк тумани Учкуприк ш

ХР: 20208000005543375001

Банк: "UNIVERSAL BANK" Бувайда филиали

МФО: 01151-ИНН: 309685462

Рахбар:

А.Салимов

##### БУЮРТМАЧИ:

Данғара туман ирригация бўлими

Данғара тумани Саноат кўчаси 5-уй

ШХР: 100022860302367042402170001

ИНН: 207263865 ОКЭД: 01613

ХР: 23402000300100001010

Тошкент шаҳар Марказий банки

ИНН: 201122919. МФО: 00014

Рахбар:

С.Тожибоев



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**FARG‘ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI**  
**DANG‘ARA TUMAN ADLIYA BO‘LIMI**  
**YURIDIK XIZMAT KO‘RSATISH MARKAZI**

150500, Dang‘ara tumani, Toshkent ko‘chasi, 150-uy  
Tel.:(998 73) 572 17 78, el. pochta: dangara.t-yurmarkaz@adliya.uz

“5” sentabr 2022 yil

Dang‘ara  
tumani Irrigatsiya bo‘limiga

**YURIDIK AXAMIYATGA EGA XUJJATLARNING QONUN XUJJATLARIGA  
MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY**

**XULOSA**

1. Loyihaning turi:

**XO‘JALIK SHARTNOMASI**

2. Loyihaning nomi:

Pudrat shartnomasi

3. Loyihani taqdim etgan davlat organi yoki tashkilotining nomi:

**Dang‘ara tumani Irrigatsiya bo‘limi**

4. Loyiha yuzasidan berilgan huquqiy xulosa:

Mazkur shartnoma O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va amaldagi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining Xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risidagi qonuni asosida o‘rganildi.

Shartnoma loyihasiga asosan pudratchi “Aziya Zamin Biznes” MCHJ, buyurtmachi esa Dang‘ara tuman Irrigatsiya bo‘limi shartnomaning taraflari bo‘lib hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari hamda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risidagi qonunining 13-moddasiga asosan yuqoridagi loyiha taraflar tomonidan imzolanib qonuniy kuchga kirgandan so‘ng 2022 yil 31 dekabrqa qadarli amal qilish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari hamda xo‘jalik yurituvchi sub‘ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risidagi qonunining 7-moddasiga asosan yuqoridagi shartnoma loyihasi bo‘yicha “Aziya Zamin Biznes”

MCHJ tomonidan umumiy qiymati 156 600 000 so'mlik loyqa chiqindilarni tashish ishlarini amalga oshirish hamda Dang'ara tuman Irrigatsiya bo'limiga bo'limi ushbu xizmatlarni qabul qilish va o'z vaqtida to'lovni amalga oshirish majburiyatini olgan.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi qonunining 25-moddasiga asosan yuqoridagi shartnoma bo'yicha taraflarning tovarlarni etkazib berish muddatlarini kechiktirib yuborganlik, to'liq etkazib bermaganlik, ishlarni bajarmaganlik yoki xizmat ko'rsatmaganlik uchun javobgarlik qonunga asosan belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021 yil 14-sentyabdagi PF-6313-son Farmonida 2022 yil 1-yanvardan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan davlat xaridlari bilan bog'liq tuziladigan shartnomalarda majburiy ravishda korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Savdo-sanoat palatasining 2021 yil 12 noyabrdagi 1/4671, 01-19/7284,7/01-08-9544-son qarori bilan Xo'jalik yurituvchi subektlar tomonidan shartnomalar tuzishda qo'llash uchun tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar yuqoridagi shartnomaga qo'shimcha ravishda kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-iyundagi PQ-5168-son [qarori va](#) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi qonunining 21-moddasiga asosan huloqa shartnomada ko'rsatilgan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi qonuni bilan tartibga solingan, shartnoma loyihasi amaldagi qonun xujjatlari talablariga javob beradi hamda qonunga mos holda tuzilgan, taraflarning shartnomada ko'rsatilgan javobgarligi va o'zaro nizolarni hal qilish O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risidagi qonuni asosida tuzilganligi haqida xulosa qilaman.

Mazkur shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, amaldagi qonunlari va O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonuni asosida o'rganildi. Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi bilan tartibga solingan, shartnoma loyihasi amaldagi qonun xujjatlari talablariga javob beradi hamda qonunga mos holda tuzilganligi haqida xulosa qilaman.

**Dang'ara tumani Yuridik xizmat ko'rsatish  
markazi bosh yuristkonsulti:**



**E.Y.Baymatov**



**"ТАСДИҚЛАЙМАН"**

Данғара туман ирригация

бўлими бошлиғи в.в.б:

*С.Тожибоев* **С.Тожибоев**

**ДАНҒАРА ТУМАН ИРРИГАЦИЯ БЎЛИМИНИНГ  
ЙИҒИЛИШ БАЁНИ №17**

**05.09.2022 йил**

**Данғара тумани**

Данғара туман ирригация бўлимига автотранспорт хизмати кўрсатиш учун ўтказилган электрон эълон натижалари тўғрисида:

Раислик қилувчи, комиссия раиси:

С.Тожибоев

Қатнашдилар:

Ш.Ғофурова

С.Бетлиев

М.Мадалиева

А.Дехқонов

**ЙИҒИЛИШ КУН ТАРТИБИДА КЎРИЛАДИГАН МАСАЛА:**

Данғара туман ирригация бўлимига автотранспорт хизмати кўрсатиш учун ўтказилган электрон эълон натижалари тўғрисида:

Кун тартибидаги масала юзасидан Данғара туман ирригация бўлимига автотранспорт хизмати кўрсатиш учун ўтказилган электрон эълонга раислик қилувчи С.Тожибоев сўзга чиқиб, ушбу эълон Ўзбекистон Республикасининг 684-сонли "Давлат харидлари тўғрисида"ги қонуни асосида шаффоф ва ҳаққоний ўтказилганлигини айтиб ўтди. Шундан сўнг Ўзбекистон Республикасининг 684-сонли "Давлат харидлари тўғрисида"ги қонунининг 62-модда 7-хат бошида кўрсатилганидек давлат буюртмачиси томонидан харид комиссиясига тақдим этилган муҳокама натижалари тўғрисидаги ахборот асосида харид комиссиясининг тегишли мажлиси баённомаси расмийлаштирилади ва имзоланган кундан бошлаб уч иш куни ичида давлат харидларининг электрон тизимига жойлаштирилиши лозим эканлигини яна бир

бор такидлаб ўтди. Мухокама муддати якунига еткандан сўнг бошқа қатнашчилар томонидан ҳеч қандай этирозлар келиб тушмаганлигини инобатга олган ҳолда йиғилиш хайъати:

### ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Мухокама муддати якунига қадар бошқа қатнашчилар томонидан ҳеч қандай этирозлар келиб тушмаганлигини инобатга олиб "Aziya zamin biznes" масъулияти чекланлан жамиятини йиғилиш хайъати ғолиб деб эълон қилсин.
2. Ғолиб деб топилган қатнашчи "Aziya zamin biznes" масъулияти чекланлан жамияти билан қонунчиликда белгиланган тартибда шартномаларни расмийлаштириб, маблағларни тўлаб бериш чоралари кўрилсин.

**Комиссия раиси:**



**С.Тожибоев**

**Комиссия аъзолари:**



**Ш.Ғофурова**



**С.Бетлиев**



**М.Мадалиева**



**А.Дехқонов**



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"AZIYA ZAMIN BUSINESS" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"AZIYA ZAMIN BUSINESS" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

29.06.2022

1157052

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

309685462

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Farg'ona viloyati, Uchko'priq tumani, Uchko'priq, Учкўприк МФЙ, Соғлом  
авлод кучаси, 69-уй,

Guvohnoma:

Farg'ona viloyati, Uchko'priq tumani, DAVLAT XIZMATLARI tomonidan  
MARKAZI berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):





Farg'ona viloyati  
tomonidan 2022-yil 28-iyunda  
1157052-son reestr  
raqami bilan

«AZIYA ZAMIN BIZNESS» mas'uliyati  
cheklangan jamiyati ishtirokchilarining 2022-  
yil 28-iyun dagi 1-son umumiy yig'ilishi  
bayonnomasi bilan

«RO'YXATGA OLINGAN»

«TASDIQLANGAN»

## I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. «AZIYA ZAMIN BIZNESS» Mas'uliyati cheklangan jamiyatining (bundan buyon matnda «jamiyat» deb yuritiladi) mazkur Ustavi O'zbekiston Respublikasining «Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risidagi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Jamiyat ishtirokchilarining 2022-yil 28-iyun dagi Ta'sis shartnomasi asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Jamiyatning ishtirokchilari:

— «SALIMOV AXADJON ABDUJALILOVICH» — 1 000 000 000.00 UZS, ya'ni 100.000%;

1.3. Jamiyatning to'liq firma nomi:

Davlat tilida: «AZIYA ZAMIN BIZNESS» mas'uliyati cheklangan jamiyati,

Rus tilida: Общество с ограниченной ответственностью «АЗИЯ ZAMIN BIZNESS»;

Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:

Davlat tilida: «AZIYA ZAMIN BIZNESS» MChJ

Rus tilida: ООО «АЗИЯ ZAMIN BIZNESS».

1.4. Jamiyatning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Farg'ona viloyati.

1.5. Jamiyat cheklamagan muddatga tashkil etiladi.

## «AZIYA ZAMIN BIZNESS» MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATINING USTAVI

### II. JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI

2.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan yuridik shaxs hisoblanadi. Jamiyat belgilangan tarbda davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

2.2. Jamiyat o'z faoliyatini mazkur ustav va O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq va ta'sis hujjatlariga asosan amalga oshiradi.

2.3. Jamiyat o'z majburiyatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi. Jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlarni uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

2.4. Jamiyat o'zining firma nomi yozilgan shtamp va blankalarga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatga olingan o'z emblemasiga, tovar belgisiga ega bo'lishga haqli.

2.5. Jamiyat o'z egaligida mustaqil balansda hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega, o'z nomidan huquqlar va majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

### III. JAMIYATNING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

3.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq vakolatxonalar va filiallar va boshqa alohida bo'limlar tuzishga haqli.

### IV. JAMIYATNI TASHKIL ETISHDAN MAQSAD VA FAOLIYAT TURLARI

4.1. Jamiyatni tashkil etishdan asosiy maqsad ishtirokchilar manfaatlarini uchun foyda olish.

Jamiyat faoliyatining predmeti bo'lib Ixtisoslashmagan ulgurji savdo hisoblanadi. Shu jumladan:

— Donli ekinlar (sholidan tashqari) yetishtirish;

— Dukkakli ekinlar yetishtirish;

— Moyli ekinlar va ularning urug'ini yetishtirish;

Uchko'prik tumani – 2022

- O'vchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko'rsatish;
- O'rmonchilik va boshqa o'rmon xo'jaligi faoliyati;
- Yog'och tayyorlash;
- Yog'ochdan tashqari o'rmon mahsulotlarini yig'ish;
- O'rmonchilik sohasidagi texnik xizmatlar;
- Dengizlarda baliq ovlash;
- Chuchuk suvlarda baliq ovlash;
- Dengiz akvakulturasini;
- Chuchuk suv akvakulturasini;
- Toshko'mir qazib olish;
- L'ignit qazib olish;
- Xom neft qazib olish;
- Tabiiy gaz qazib olish;
- Temir rudasini qazib olish;
- Uran va toriy rudalarini qazib olish;
- Boshqa rangli metall rudalarini qazib olish;
- Qurilish va pardozlash uchun tosh, ohaktosh, gips, bo'r va slanestlar qazib olish;
- Ochiq shag'al va qum konlarini ishlash, tuproq va kaolin qazib olish;
- Kimyo sanoati va o'g'itlar ishlash chiqarish uchun mineral xom ashyolar qazib olish;
- Torf qazib olish;
- Tuz qazib olish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan tog'-kon sanouati bilan bog'liq faoliyat;
- Neft va tabiiy gaz qazib olish sohasidagi texnik xizmatlar;
- Tog'-kon sanoatining boshqa sohalari va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish va yopiq usulda qazishga texnik yordam ko'rsatish;
- Qushxonalarda mol so'yish, go'shiga ishlov berish yoki qadoqlash;
- Yangi, sovitilgan va muzlatilgan go'sht ishlash chiqarish;
- Go'shtni qayta ishlash bo'yicha boshqa faoliyat;
- Uy parrandalari go'shtini qayta ishlash;
- Tuzlangan, qurtulgan yoki dudlangan go'sht, parranda go'shti va ozuqaviy submahsulotlar ishlab chiqarish;
- Kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Baliq, qisqichbaqasimonlar va molluyuskalarni qayta ishlash va konservalash;
- Kartoshkani qayta ishlash va konservalash;
- Meva va sabzavot shartbattlarini ishlab chiqarish;
- Mevalar va sabzavotlarni qayta ishlash va konservalashning boshqa turlari;
- O'simlik va hayvonlar yog'lari va moylarini ishlab chiqarish;
- Margarin va ovqatga ishlatiladigan aralash yog'lar ishlab chiqarish;
- Sutni qayta ishlash va pishloq ishlab chiqarish;
- Muzqaymoq ishlab chiqarish;
- Tegirmon-yorma sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Kraxmal va kraxmalli mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish;
- Suxari va pechenye, xamirdan tayyorlangan uzoq saqlanadigan qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish;

- Sholi yetishtirish;
- Sabzavotlar yetishtirish;
- Poliz ekinlari yetishtirish;
- Kraxmal va inulina boy ildizmevali ekinlar va ularning urug'larini yetishtirish;
- Boshqa ildizmevali ekinlar va ularning urug'larini, qo'ziqorinlar va tryufellarni yetishtirish;
- Shakarqamish yetishtirish;
- Tamaki yetishtirish;
- Paxta yetishtirish;
- Zig'ir yetishtirish;
- Boshqa yigiriluvchi (total) ekinlarni yetishtirish;
- Yem-xashak ekinlari va ularning urug'larini yetishtirish;
- Gullar va ularning urug'larini yetishtirish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan ko'p yillik bo'lmagan ekinlarni yetishtirish;
- Uzun yetishtirish;
- Tropik va subtropik mevalar yetishtirish;
- Sitrus mevalar yetishtirish;
- Danakli va po'choqli urug'i bo'lgan mevalar yetishtirish;
- Mevali daraxtlar, butalar va yong'oqlarning boshqa turlarini yetishtirish;
- Moyli mevalar yetishtirish;
- Ichimlik ishlab chiqarish uchun ekinlar yetishtirish;
- Ziravorlar, xushbo'y, kuchli narkotik va farmatsevtika ekinlarini yetishtirish;
- Boshqa ko'p yillik ekinlarni yetishtirish;
- Ko'chatxona mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Yirik shoxli qoramollarning sut beradigan zotlarini ko'paytirish;
- Yirik shoxli qoramollarning boshqa zotlarini va buyvollarini ko'paytirish;
- Ot'larni ko'paytirish;
- Eshaklar, xachirlar va boshqa tuyoqli zotlarni ko'paytirish;
- Tuyalar va tuyasimonlarni ko'paytirish;
- Qorako'l zoti ko'ylarni ko'paytirish;
- Qorako'l zotlaridan tashqari qo'ylarni ko'paytirish;
- Echkilarni ko'paytirish;
- Cho'chqalar va cho'chqa bo'alarini ko'paytirish;
- Parrandachilik;
- Ipak qurtini ko'paytirish;
- Asafarlarni ko'paytirish;
- Quyovlar va boshqa mo'ynali hayvonlarni ko'paytirish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan hayvonlarni ko'paytirish;
- Aralash qishloq xo'jaligi;
- Qishloq xo'jalik texnikasini operatori va texnik xodimi bilan berish;
- O'simliklarni kasallik va zararkunanda hashoratlardan, shuningdek kemiruvchilardan himoya qilish;
- Qishloq xo'jalik sug'orish uskunalariga xizmat ko'rsatish;
- Dehqonchilik sohasida boshqa xizmatlar ko'rsatish;
- Hayvonlarni ko'paytirish sohasidagi yordamchi faoliyat turlari;
- Hostil yig'ilgandan keyingi qishloq xo'jalik faoliyati;
- Urug'larga ishlov berish va ekishga tayyorlash;

- Makaron mahsulotlari va shunga o'xshash unli mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Shakar ishlab chiqarish;
- Kakao, shokolad va sershakar qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Choy va qahva ishlab chiqarish;
- Ziravor va dovivorlar ishlab chiqarish;
- Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Bolalar ovqati va parhez oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Fermalarda boqiladigan hayvonlar uchun tayyor oziq-ovqat ishlab chiqarish;
- Uy hayvonlari uchun tayyor oziq-ovqat ishlab chiqarish;
- Spirdi ichimliklarni distillash, tozalash va aralashtirish;
- Uzumdan vino ishlab chiqarish;
- Sidr (olma vinosi) va boshqa meva vinolari ishlab chiqarish;
- Boshqa distillanmagan fermentlangan (biyog'itilgan) ichimliklar ishlab chiqarish;
- Pivo ishlab chiqarish;
- Colod (undirib yanchilgan bug'doy, arpa va sh.k.) ishlab chiqarish;
- Spirtsiz ichimliklar ishlab chiqarish; butilkada mineral suvlar va boshqa suvlar ishlab chiqarish;
- Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Paxta tolalarini tayyorlash va yigirish;
- Paxta tolalarini tayyorlash va yigirish;
- Jun tolalarini tayyorlash va yigirish;
- Ipak tolalarini tayyorlash va yigirish;
- Ipak tolalarni tayyorlash va yigirish;
- Ip gazlama ishlab chiqarish;
- Jun gazlama ishlab chiqarish;
- Ipak gazlama ishlab chiqarish;
- Boshqa gazlamalar ishlab chiqarish;
- To'qimachilik mahsulotlarini bezashi;
- To'qilgan va trikotaj polotno ishlab chiqarish;
- Kiyimdan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Arqon, kanal, chilvir, bog'ichlar ishlab chiqarish va to'rt qish;
- Kiyimdan tashqari noto'qima mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Boshqa texnik va sanoat to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Charmdan kiyimlar ishlab chiqarish;
- Korjornalar ishlab chiqarish;
- Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish;
- Ichki kiyimlar ishlab chiqarish;
- Boshqa kiyimlar va aksesuarlar ishlab chiqarish;
- Mo'ynali mahsulotlar ishlab chiqarish;
- To'qilgan va trikotaj paypoq-noski mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Boshqa to'qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Terini oshlash va ishlov berish; mo'ynaga ishlov berish va bo'yash;
- Chemodanlar, ayollar sumkalari va teridan boshqa buyumlar ishlab chiqarish;
- Poyafzal ishlab chiqarish;

- Taxta tilish va rindalash sanoati;
- Shpon, fimer, yog'ochdan plita va paneallar ishlab chiqarish;
- Yig'ma parket qoplamalar ishlab chiqarish;
- Boshqa yog'och qurilish konstruksiyalari va duradgortik buyumlarini ishlab chiqarish;
- Yog'och idishlar ishlab chiqarish;
- Boshqa yog'och buyumlar ishlab chiqarish; po'kak, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish;
- Qog'oz massasi va selluloza ishlab chiqarish;
- Qog'oz va karton ishlab chiqarish;
- Gofirovka qilingan qog'oz va karton, qog'oz va karton tara (idish)lar ishlab chiqarish;
- Xo'jalik-maishiy va sanitariya-gigiyenaga mo'ljallangan qog'oz buyumlar ishlab chiqarish;
- Yozuv qog'ozini ishlab chiqarish;
- Gulqog'ozini ishlab chiqarish;
- Qog'oz va kartondan boshqa buyumlar ishlab chiqarish;
- Gazetalar nasir qilish;
- Matbaa faoliyatining boshqa turlari;
- Bosma shakllarni tayyorlash va infomatсион faoliyat;
- Broshyuralash-muqovallash va pardozlash faoliyati va ular bilan bog'liq xizmatlar;
- Axborot tarqatuvchilardagi yozuvlarni aks ettirish;
- Koks pechlari mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Sanoat gazlari ishlab chiqarish;
- Bo'yoq moddalar va pigmentlar ishlab chiqarish;
- Boshqa asosiy noorganik kimyoviy moddalar ishlab chiqarish;
- Boshqa asosiy organik kimyoviy moddalar ishlab chiqarish;
- O'g'itlar ishlab chiqarish;
- Azodli birikmalar ishlab chiqarish;
- Birlamchi formalarda plastmassa ishlab chiqarish;
- Birlamchi formalarda sintetik kauchuk ishlab chiqarish;
- Pestitsidlar va boshqa agrokimyoviy moddalar ishlab chiqarish;
- Bo'yoqlar, laklar va shu kabi bo'yovchi moddalar, bosmaxona bo'yoqlari va mastikalar ishlab chiqarish;
- Suvun va yuvish vositalari, tozalash va sayqallash preparatlari ishlab chiqarish;
- Parfumeriya va pardoz vositalari ishlab chiqarish;
- Portlovchi moddalar ishlab chiqarish;
- Yelim ishlab chiqarish;
- Efir moylari ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan kimyoviy moddalar ishlab chiqarish;
- Sun'iy tolalar ishlab chiqarish;
- Asosiy farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish;
- Farmatsevtika preparatlarini ishlab chiqarish;
- Rezina shina, pokrishka va kameralar ishlab chiqarish;
- Rezina shina va pokrishkalarni tiklash;
- Boshqa rezina buyumlar ishlab chiqarish;
- Plastmassa plitalar, tasmalar, quvurlar va profilalar ishlab chiqarish;
- Tovarlar uchun plastik qadoqlash mahsulotlari ishlab chiqarish;

- Qurilish uchun plastik buyumlar ishlab chiqarish;
- Boshqa plastmassa buyumlar ishlab chiqarish;
- Listlangan shisha ishlab chiqarish;
- Listlangan shishani qoliplash va ishlav berish;
- Kovak shisha buyumlar ishlab chiqarish;
- Shisha tola ishlab chiqarish;
- Boshqa shisha buyumlarni jumladan texnik buyumlarni, ishlab chiqarish va ishlav berish;
- O'nga chidamli buyumlar ishlab chiqarish;
- Keramik qoplama va plitalar ishlab chiqarish;
- G'isht, cherepitsa va pishirilgan loydan boshqa qurilish materiallari ishlab chiqarish;
- Maishiy va dekorativ keramik buyumlar ishlab chiqarish;
- Keramikadan gigiyenik sanitariya-texnika buyumlari ishlab chiqarish;
- Keramik izolyatsiyalovchi materiallar va garnituralar ishlab chiqarish;
- Boshqa texnik keramik buyumlar ishlab chiqarish;
- Boshqa keramik buyumlar ishlab chiqarish;
- Sement ishlab chiqarish;
- Ohak va qurilish uchun gips ishlab chiqarish;
- Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish;
- Qurilish maqsadlariga mo'ljallangan gips buyumlar ishlab chiqarish;
- Tayyor beton ishlab chiqarish;
- Quruq beton qotishmalari ishlab chiqarish;
- Tolali sement ishlab chiqarish;
- Beton, qurilish gipsi va sementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish;
- Toshni kesish, ishlav berish va pardozlash;
- Abraziv buyumlar ishlab chiqarish;
- Abraziv toifalarga kiritilmagan nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Cho'yan, po'lat va temir qotishmalarni ishlab chiqarish;
- Po'lat quvur, quvuro'tkazgich, profil, fittinglar ishlab chiqarish;
- Sovuq holda cho'zish;
- Tasma va tor tasmalarni sovuq holda prokatka qilish (yoyish);
- Sovuq holda qoliplash va falsovka qilish;
- Sovuq holda cho'zib tortish yo'li bilan sim ishlab chiqarish;
- Asl (qimmatbaho) metallar ishlab chiqarish;
- Alyuminiy ishlab chiqarish;
- Qo'rg'oshin, rux, qalay ishlab chiqarish;
- Mis ishlab chiqarish;
- Boshqa rangli metallar ishlab chiqarish;
- Yadro yonilg'ileri ishlab chiqarish;
- Cho'yan quyish;
- Po'lat quyish;
- Yengil metallar quyish;
- Boshqa rangli metallar quyish;
- Qurilish metall konstruksiyalari va buyumlari ishlab chiqarish;
- Metall eshik va derazalar ishlab chiqarish;
- Radiatorlar va markaziy isitish qozonlari ishlab chiqarish;
- Boshqa metall sistemna, rezervuar va konteynerlar ishlab chiqarish;

- Markaziy isitish qozonlaridan tashqari bug' qozonlari ishlab chiqarish;
- Qurol va o'q-dorilar ishlab chiqarish;
- Listlangan metallni bolg'lash, iskanjalash, qoliplash, rotikli egish mashinalarida listlangan metallni profilash; poroshok metallurgiya;
- Metallarga ishlav berish va metallarni qoplamalar bilan qoplash;
- Mashinasozlikning asosiy texnologik jarayonlari;
- O'zqatlanish anjomlari ishlab chiqarish;
- Qulf, ilmoq va oshiq-moshiqlar ishlab chiqarish;
- Asboblar ishlab chiqarish;
- Metall bochakalar va shu kabi idishlar ishlab chiqarish;
- Yengil metallardan upakovka materiallari ishlab chiqarish;
- Simdan buyumlar, zanjirlar va prujinalar ishlab chiqarish;
- Mahkamlash uchun va rezbali buyumlar ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish;
- Elektron qismlar ishlab chiqarish;
- Elektron yuklash panellari ishlab chiqarish;
- Kompyuterlar va periferik uskunalari ishlab chiqarish;
- Kommunikatsiya uskunalari ishlab chiqarish;
- Maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish;
- O'lchash, nazorat, sinash va navigatsiya uchun asbob-uskunalar ishlab chiqarish;
- Soatlar ishlab chiqarish;
- Nurlantiruvchi, elektr meditsina va elektr terapiya uskunalari ishlab chiqarish;
- Optika asboblari va fotografiya uskunalari ishlab chiqarish;
- Axborot uzatishning magnit va optik vositalarini ishlab chiqarish;
- Elektr dvigatellar, generatorlar va transformatorlar ishlab chiqarish;
- Elektr taqsimlovchi va boshqaruv apparaturalari ishlab chiqarish;
- Batariya va akkumulyatorlar ishlab chiqarish;
- Optik tolali kabel ishlab chiqarish;
- Elektr simlari va kabelning boshqa turlarini ishlab chiqarish;
- Elektr asboblari ishlab chiqarish;
- Elektr yoritish uskunalari ishlab chiqarish;
- Maishiy elektr asboblari ishlab chiqarish;
- Maishiy noelektr asboblari ishlab chiqarish;
- Boshqa elektr asboblari ishlab chiqarish;
- Aviatsiya uchun mo'ljallanganidan tashqari dvigatellar va turbinalar, avtomobil va mototsikllar dvigatellari ishlab chiqarish;
- Gidravlik va pnevmatik uskunalari ishlab chiqarish;
- Boshqa nasos va kompressorlar ishlab chiqarish;
- Boshqa jo'mrak va ventillar ishlab chiqarish;
- Podshipniklar, tishli g'ildiraklar, tishli uzatma va yuritmalarining elementlarini ishlab chiqarish;
- Plita, pechka va pechka goreikalari ishlab chiqarish;
- Ko'tarma-transport uskunalari ishlab chiqarish;
- Ofis texnikasi va jihozlari ishlab chiqarish (kompyuterlar va periferik uskunalardan tashqari);
- Qo'l elektr asboblari ishlab chiqarish;
- Sanoat sovitish va ventilyatsiya uskunalari ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan umumiy foydalanishga mo'ljallangan mashina va uskunalarni ishlab

chiqarish;

- Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish;
- Bosim ostida metallarga ishlov berish uchun uskunalar ishlab chiqarish;
- Boshqa metallarga ishlov beradigan dastgohlar ishlab chiqarish;
- Metallurgiya uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarish;
- Tog'-kon sanoati va yerosti konlari uchun texnika ishlab chiqarish;
- Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash uchun uskunalar ishlab chiqarish;
- To'qimachilik, tikuvchilik, mo'ynali va charam buyumlarni tayyorlash uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarish;
- Qog'oz va karton tayyorlash uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarish;
- Plastmassa va rezinani qayta ishlash uchun uskunalar ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan, maxsus vazifalarga mo'ljallangan boshqa mashina va uskunalar ishlab chiqarish;
- Motorli transport vositalari ishlab chiqarish;
- Avtotransport vositalari uchun kuzovlar ishlab chiqarish; treylar va yarim pritseplar ishlab chiqarish;
- Avtotransport vositalari uchun elektr va elektron butlovchi qismlar ishlab chiqarish;
- Avtotransport vositalari uchun boshqa butlovchi qismlar va aksessuarlar ishlab chiqarish;
- Kemalar va suzuvchi konstruksiyalar qurish;
- Sayr va sport qayiqdori qurish;
- Temir yo'l lokomotivlari va harakatdagi sostavlar ishlab chiqarish;
- Uchish apparatlarini, jumladan kosmik apparatlar, ishlab chiqarish;
- Harbiy jangovor transport vositalari ishlab chiqarish;
- Mototsikllar ishlab chiqarish;
- Velosipedlar va nogironlar aravachalari/reslolarini ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa transport vositalari va uskunalari ishlab chiqarish;
- Ofis va magazinlar uchun mebel ishlab chiqarish;
- Oshxona uchun mebel ishlab chiqarish;
- To'shaklar ishlab chiqarish;
- Boshqa mebellar ishlab chiqarish;
- Tanga zarb qilish;
- Zarqarlik buyumlari va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish;
- Bijuteriya va shu kabi buyumlar ishlab chiqarish;
- Musiqa asboblari ishlab chiqarish;
- Sport tovarlari ishlab chiqarish;
- O'yin va o'yinchoqlar ishlab chiqarish;
- Meditsina va stomatologiya asboblari va jihozlari ishlab chiqarish;
- Supurgi va cho'tkalar ishlab chiqarish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Tayyor metall buyumlarni ta'mirlash;
- Mashina va uskunalarni ta'mirlash;
- Elektron va optik uskunalarni ta'mirlash;
- Elektr uskunalarni ta'mirlash;
- Kemalar va qayiqdori ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish;
- Havo kemalari va kosmik kemalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish;

- Temir yo'l lokomotivlari va harakatdagi sostavlar, jumladan tramvaylar, metro vagonlari va trolleybuslarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan transport uskunalari boshqa turlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;
- Boshqa uskunalarni ta'mirlash;
- Sanoat texnika va uskunalarni montaj qilish (yig'ish);
- Issiqlik elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish;
- Gidro elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish;
- Boshqa elektr stansiyalari tomonidan elektr energiyasi ishlab chiqarish;
- Elektr energiyasini uzatish;
- Elektr energiyasini taqsimlash;
- Elektr energiyasini sotish;
- Gaz ishlab chiqarish;
- Gaz bilan ta'mirlash tizimi orqali gazsimon yoqilg'ini taqsimlash;
- Uzatish quvurlari orqali gazsimon yoqilg'ini sotish;
- Bug' uzatish va havoni konditsiyalash tizimlari;
- Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash;
- Kanalizatsiya tizimi;
- Zararsiz chiqindilarni yig'ish;
- Zararli chiqindilarni yig'ish;
- Zararsiz chiqindilarga ishlov berish va yo'qotish;
- Zararli chiqindilarga ishlov berish va yo'qotish;
- Siniq bo'laklarni yo'qotish;
- Ikkilamchi xom ashyo olish uchun metall chiqindilarni saralash va qayta ishlash;
